

YEVROPA XALQLARI ETNOLOGIYASINI TARIXIY JIHATDAN O'RGANISH

*Andijon davlat pedagogika instituti
 “Ijtimoiy va amaliy fanlar” fakulteti
 Tarix yo’nalishi 3-bosqich talabasi
 Olimova Zulfiyaxon Ibrohimjon qizi
zulfiyaolimova98@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqola Yevropa qadimgi xalqlarining etnologik jihatdan rivojlanishi va uning rivojlanish jarayonini tarixiy nuqtayi – nazardan o’rganish yuzasidan batafsil ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, Yevropa xalqalarining madaniyati, turmush tarzi, tili, dini va boshqa etnologik jihatdan o’rganilish masalalariga alohida e’tibor berilgan.

Kalit so’zlar: etnologiya, xristianlik, Karpat, Alp, Bolqon, mezolit, Yevropa, zadruga, O`rta Dunay, Don, Volga, “Iliada”, “Odisseya”, kapitalizm, xalq xo’jaligi.

Аннотация: В данной статье даны подробные сведения об этнологическом развитии древних народов Европы и изучении процесса его развития с исторической точки зрения. Также особое внимание уделялось вопросам изучения культуры, образа жизни, языка, религии и других этнологических аспектов народов Европы.

Ключевые слова: этнология, христианство, Карпаты, Альпы, Балканы, мезолит, Европа, Задруга, средний Дунай, Дон, Волга, “Илиада”, “Одиссея”, капитализм, народное хозяйство.

Annotation: This article details the Ethnological development of the ancient peoples of Europe and the study of the process of its development from a historical point of view. Particular attention has also been paid to issues of study of the culture, way of life, language, religion and other ethnological aspects of European peoples.

Keywords: Ethnology, Christianity, Carpathian, Alpine, Balkan, Mesolithic, European, zadruga, Middle Danube, Don, Volga, “Iliada”, “Odyssey”, capitalism, folk economy.

Etnologiya (xalqlarning o‘rganuvchi fan) yer yuzida yashaydigan barcha xalqlami o’rganadi. Ma’lumki bugungi kunda dunyo aholisi 7 mlrd. kishidan oshdi. Insonlar jitim oiy (jam oaviy) jonzot sifatida turli jam oalarga birlashadilar. Tarixni eng erta vujudga kelgan odamlar jamoalari aynan etnik asosda birlashgan. Etnik jamoalar yoki etnoslar (sinonim tarzida - xalqlar ham deyish mumkin) tarixan ma’lum hududda shakllanib, o‘z ko’rinishi bo‘yicha odamlarning ko‘p sonli birlashmasi, ulami umumiyligini va madaniyat, ongi (o‘zligi) birlashtirib, bunday jamoalar o‘zlarimi o’zgalardan

farqlaydilar, Etnoslaming xarakterli xususiyatlari tili, madaniyati va shunga o'xshash belgilari avloddan avlodga o'tadi.

SSSR parchalangunga qadar Yevropa yer yuzining eng kichik qismi edi. Etimologik jihatdan europe ("osur" tilidan "ereb") "g'arb davlati" degan ma'noni anglatadi. Yevropa xalqlarining qulay tarixiy sharoitlari tufayli insoniyatning madaniy rivojlanishi, yuksalishida muhim rol o'ynashiga to'g'ri keldi, asosan esa oxirgi 400-500 yil ichida. Yevropaning tabiiy geografik sharoiti turli-tuman. Yirik pasttekisliklar Shimoliy Germaniya, Past va O'rta Dunay, Frantsuz, Lombard, Ukraina pasttekisliklari, Karpat, Alp, Bolqon, Apennin, Pirenay, Skandinaviya kabi baland tog`tizmalari bilan tutashadi. Sharq va janubda Kavkazning baland tog`lari bilan chegaradosh. Yevropada kemalar qatnovi uchun qulay daryolar ko`p, u judayam qulay ko`rfazlar bilan o`ralgan; Atlantika okeani, O'rta Yer dengizi, Qora dengiz. Yevropa iqlimining turli tumanligi Shimoliy Skandinaviya va Rossiya arktik iqlimining O'rta Dunay jazirama cho'llari, Don va Volga daryolarini o`z ichiga oladi. Geografik sharoitning qulayligi insoniyatning madaniy jihatdan rivojlanishida ijobjiy ta'sir ko`rsatdi. Ular yer haydash, chorvachilik, tabiiy boyliklarni qo'lga kiritish bilan birgalikda etnoslararo savdo aloqalarini ham yo'lga qo'ygan edilar.

Sovet ittifoqi parchalangunga qadar G`arbiy Yevropada 62 ta xalq istiqomat qilar edi. Yevropaning Janubiy va O'rta qismi qadimgi davrlardan odamlar kelib joylashgan hudud hisoblanadi. G`arbiy Germaniyadan Geydenberg odamining jag` qoldiqlari topilgan. Mezolit va neolit davrida odamlar shimolga qarab siljishni boshlaydilar. Ushbu davrda ovchilik va baliqchilikdan doimiy dehqonchilik va chorvachilikka o'tadilar. Antik davrlarda hind-yevropa tillari hukmronlik qilmagan. Yevropaning janubida iber, vaska va Pirenay yarim orolining boshqa xalqlari tillari, Apenin va Sitsiliyada Ligur, etrusk, epig, sikuk, sikan, Britan orolida pikta tillari bo`lib, bask tilidan boshqasi yo`qolib ketgan. Eramizdan avvalgi 3 mingyillikda Yevropa viloyatlaridan birida hind-yevropa shevalari vujudga kelgan. Eramizdan avvalgi II asrda hind-yevropa tillari Osiyogacha kirib bordi. Yevropada esa Bolqon yarim orolida (nelaslar, keyin yunonlar), Britan orollaridan Pirenay yarim oroligacha (keltlar). Yevropaning shimoli-sharqiy qismini o'sha davrlarda hozirgi fin-uyg`ur xalqlarining ajdodlari egallagan. Eramizdan avvalgi II ming yillikda O'rta Yer dengizida qadimgi xalqlari ta'sirida yuqori tsivilizatsiyalar vujudga kela boshlaydi; Egey (Krit-Miken), Ellin (yunonlar), Rim kabilarni. O'rta Yer dengizida quldorlik davlatlari vujudga keladi, shahar madaniyati o`sadi, yozuv, san'at, fan. Antik madaniyat yangi yevropa madaniyatining shakllanishiga asos bo`lib xizmat qiladi. II-V asrlarda "xalqlarning buyuk ko'chishi" yuz beradi (german va slavyan qabilalari). "Milodiy III - IX asrlarda yevropada german, slavyan, turk, eron va boshqa qabilalaming ommaviy ko'chishlari keyinchalik xalqlarning buyuk ko'chishlari nomini oladi. Ushbu ko'chishlar oqimiga

turkiy tili xunnlar kuchli turtki beradi”¹. Sharqiy va janubiy – Sharqiy Yevropada slavyanlar keng tarqaldilar. Ular Boltiq bo`yidan Bolqon yarim oroli janubigacha bo`lgan hududlarni egalladilar va mahalliy aholi bilan aralashib ketdilar. Yevropa xalqlarining etnik o`zgarishiga arablarning yurishlari va Shimoliy Afrika, Pirenay yarim orolining katta qismi, Normandiya va Sitsiliyani bosib olishra ta`sir etdi.

Turklarning Kichik Osiyodan Bolqonga kirib kelishi va ular tomonidan butun yarim orol davlatlarining bo`ysundirilishi XV asming o`rtalariga kelib orol xalqlarining xo`jalik va madaniy hayotiga hamda etnik tarixiga ta`sir etadi. O`sha jarayon sadolarini biz Yugoslaviyaning parchalanishi davrida, Bosniyadagi musulmon va xristianlar, serb, xorvat va bosniyaliklar o`rtasidagi urushlarda kuzatamiz. Shaharlarning, hunarmandchilikning va savdoning o`sishi oqibatida Yevropada markazlashgan qirolliklar. Ispaniya, Portugaliya, Frantsiya, Angliya, Daniya, Shvetsiya, Vengriya vujudga kela boshlaydi, turli etnik va til guruhlarining etnik birlashish jarayoni boshlanadi. Ingliz millatining shakllanishida 1066 yil normandlar bosqini muhim rol o`ynagan.

Til klassifikatsiyasi. “Qadimgi Yevropaliklar qanday tillarda so`zlashganini aniqlash mushkul. Ilk qabilafar keyinchalik m. av. III-II ming yilliklarda hududga kelgan hmdevropa tilli xalqlar bilan aralashib ketganlar. Eng qadimgi hind-evropa tillari ga mansub boim agan til faqat basklarda Ispaniyamg Kataloniya viloyatida saqlanib qolgan. Hindevropa tilli aholidan esa yevropaga dastlab kelganlar pelasqlar, ellinlar, italiylar va keltlar bo`lgan. M .av. III-II ming yilliklarda yevropaning janubidagi qadimgi Sharq madaniy markazlari ta`sirida betakror Krit-Miken sivilizatsiyasi vujudga kelgan”².

An'anaviy Yevropa turar joylari. Butun Yevropada bir hovlili yoki ikki uch hovlili qishloqlar ko`p uchraydi. Qishloqlardagi zamonaviy uylar shaharlardagi kabi pishiq g`isht, beton va shunga o`xshash hozirgi qurilish materiallaridan qurilmoqda. Yevropaning janubiy chizig`ida uylar toshdan quriladi, shimoliy chizig`ida esa yog`ochdan. O`ylar ham qurilish ashyolari va tom shakliga yashash va xo`jalik xonalarining tuzilishiga qarab bir necha tiplarga bo`lingan. Butun Yevropada gorizontal bir xonali shaklga ega uylardan bir necha qavatli, ko`p xonali, dabdabali imoratlar ham ko`p uchraydi. Mingyilliklar davomida turar joylarning quyidagi turlari saqlanib qolgan:

1. O`rta yer tipi: bu tipga 2-3 qavatli uylar xos, tog` hududlarida esa uylar tog` qiyaliklarida, tog` yonbag`irlarida qad ko`targan.

2. Alp tipi: judayam katta 2 qavatli uylar xos, past qavati toshdan, yuqori qavati esa yog`ochdan. Ikki qavat bo`ylab galeriya mavjud. Tomi ikki nishabli.

¹ Salimov T. Jahon xalqlari etnologiyasi. O`quv qo'llanma. Toshkent, 2019.

² Salimov T. Jahon xalqlari etnologiyasi. O`quv qo'llanma. Toshkent, 2019.

3. Qadimgi sakson uylari, Shimoliy va shimoli-g`arbiy Germaniya, Janubiy Daniya, Sharqiy Gollandiyada.

Yevropa xalqlari kiyimlari o`zlarining tarixiy rivojlanishi davomida barcha bosqichlari o`tadi. Paleolit davrining eng sodda shaklidan hozirgi zamonaviy liboslargacha. Kiyimlarning qadimgi ko`rinishi belbog` bo`lib, u songacha o`ralgan. Erkaklar ko`ylaklari to`g`ri to`rtburchak mato kesimidan iborat bo`lib, u antik yunon kitonlari va rim tunikasi. Rimliklar ishton kiyishgan, u bu varvarlikni belgisi deb hisoblashgan. Kelt va german davlatlarida kalta ishtonlar dvoryan kiyimining bir qismi sifatida urfga kirgan. Kalta kamzul (jakkalar yoki yengsiz jilet (ponchotto), boshiga shlyapa yoki beretto (xaltasimon telpak) kiyadilar. Ayollarda uzun keng yubka (gunnalar, kashtali oq ko`ylak (pamicho) beligacha kalta kofta (korsetto), boshiga ro`mol (fatseletto). Alp tog`larida tagi mixli yog`och tufli yoki xom teridan tikilgan yengil sandal (chochi) kiyilgan.

German xalqlarida erkaklar yengli yoki yengsiz ikki buklamli matodan tikilgan ko`ylak, uzun ishton kiyishgan. Ayollarning ham ust kiyimi ikki buklam matodan tikilib maxsus fibula bilan egniga bog`langan, keyinchalik keng tikiladigan bo`lgan. Ularda eskidan kapyushonli plash ma'lum bo`lgan. Gessen aholisi orasida bir yoki bir necha qavatlari yubka kiyiladi. Frankopiya ayollarining an'anaviy kiyimlari qizil yoki jigarrang matodan yubka yoki etaklar tikilib kashtalanadi. Ayrim xalqlar (Moraviya, Slovakiya, G`arbiy Karpat bo`yi) da ayollar egniga ip bog`langan yengsiz ko`ylaklar kiygan. Hozirgi vaqtida yevropaliklarning an'anaviy kiyimlari faqatgina maxsus kechalar va bayramlarda kiyiladi.

Turmush va ma'naviy hayot. Yevropa xalqlarining barchasida oilaviy turmush shakli deyarli bir hil. Patriarxal urug`chilik tartibi faqatgina albanlarda (faslar, chernogorlarda ("bratstvo"), tog` shotlandlarida (klon). Oila-jamoa munosabatlari yaqin davrgacha ayrim bolqon xalqlari (bolgarlar, makedoniyaliklar, serblar, bosniyaliklar va boshqalar) da saqlanib kelgan. Mazkur oilaviy munosabatlarni yemirilishi maxsus minorat odatini yaratgan edi. Ilgari kelot va german xalqlarida ma'lum bo`lgan bu odatga binoan meros ota-onadan kenja o`g`ilga o`tadi. Keyinchalik mayorat odati, ya`ni meros katta o`g`ilga o'tish rasmi bilan almashadi. Janubiy slavyanlarda katta patriarxal oila ("zadruga") natural xo`jalikka asoslangan 20-50, ba`zida 100 kishidan iborat qarindoshlardan tashkil topgan. Oilaviy an'analarda, ayniqsa to`y marosimlarida ancha qadimiy arxaik belgilarni uchratish mumkin. U ko`pchilik xalqlarda o`xshash. Masalan: kelin o`g`irlash, ayrim joylarda erkak kishining kelinga bo`lgan huquqi quyidagi urfda ifoda etgan (u barcha yigitlar bilan raqsga tushushi kerak yoki to`yga kelgan barcha mehmonlarni o`pish kerak bo`lgan). Qalin udumi o`ziga xos ko`rinishga ega bo`lgan. Bunda kelin uchun kuyov maxsus to`lanadigan pul, nikoh sovg`alari, kelin uchun atalgan sep. Yevropada uzoq davrlardan o`ziga xos xo`jalik birlashmalar, hunarmandchilik ittifoqlari mavjud edi.

E'tibor beradigan bo'lsak bu davrda barcha Yevropa davlatlarida xristianlik dini tarqalgan edi. "XI asrdan boshlab xristianlik g`arbiy va sharqiy hududlarini ham egallaydi. So`ngra esa reformatsiya harakati katolik cherkovlarida lyuteranlik, kalvinizmni vujudga kelishiga olib keldi. Boltiq bo`yi hududlarida katolik, provoslav va lyuteranlik hali ham mavjud (g`arbiy latishlar va estonlar) Kalmikiyada buddizm saqlanib qolgan"³. Kavkaz xristianlik va Islomga e'tiqod qilishadi. Dastlab xristianlik armanlarda (301 y) vujudga kelgan. Va arman – Grigoryan cherkovi sharqi provaslav nuqtai nazarida ish yuritardi. Gruziyada xristianlik 337 yil davlat dini sifatida tan olingan. Islomning paydo bo`lishi arab bosqinlari bilan bog`liq. Islomning ikkita yo`nalishi: shialar va sunnalar mavjud edi. Azarbayjonlar shialar, qolgan musulmonlar esa sunnalar bo`lgan. Yuqorida nomlari keltirilgan xalqlarda xalq badiiy ijodidan professional mahoratini ajratish qiyin. Xalq og`zaki ijodini qayta ishlangan ko`rinishlarini "Iliada" va "Odisseya"da uchratish mumkin. O'rta asrlar Yevropasidagi keyingi rivojlanish "Nibelunglar to`g`risidagi qo'shiq", Gus "dostonlari", ukrain "xalq eposi", finklardagi "Kalivila"ni ko`ramiz. Ertak eposi kapitalizm davrigacha Yevropada mavjud bo`lgan. XVII asrlardan Perra, aka-uka Grimm ertaklari yozila boshlangan.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Yevropa xalqlarining etnologiyasini tarixiy jihatdan o'rganish ularning kelib chiqishi, madaniyati, ijtimoiy tuzilmasi va taraqqiyot bosqichlarini chuqur tahlil qilishga xizmat qiladi. Bu jarayon orqali har bir xalqning o'ziga xosliklari, urf-odatlari, tillari, diniy e'tiqodlari va turmush tarzining shakllanishi aniqlanadi. Tarixiy-etnologik tadqiqotlar Yevropadagi qadimgi tsivilizatsiyalar — greklar, rimliklar, keltlar, germanlar, slavyanlar va boshqalarning bir-biriga ta'siri, migratsiya jarayonlari hamda madaniy almashinuvlarni yoritishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu fan Yevropada milliy davlatchilikning shakllanishi, etnik identifikatsiyaning kuchayishi va zamonaviy etnik mojarolarni tushunishda ham asosiy manba hisoblanadi. Etnologiyaning tarixiy yondashuvi Yevropa xalqlarining umumiyligi taraqqiyot yo'lini ochib berish barbarida, ularning o'zaro o'xshashlik va farqlarini ham ilmiy asosda baholash imkonini beradi. Shu tariqa, etnologiya faqat o'tmishni emas, balki bugungi kun va kelajak uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Salimov T. Jahon xalqlari etnologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2019.
2. Jo'rayev A., Mahmudov A. va boshqalar. Jahon tarixi (Qadimgi dunyo va o'rta asrlar). — Toshkent: «O'qituvchi», 2009.
3. Karimov B. Etnologiyaga kirish. — Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2015.

³ <https://ziyouz.com> sayti

4. Qo‘chqorov O., Xidirov B. Yevropa xalqlari tarixi va madaniyati. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2012.
5. Tursunov H., Xudoyberganov A. Etnos va etnologiya asoslari. — Toshkent: TDPU, 2017.
6. G‘aniyeva N., Rustamova D. Etnos, xalq va millat tushunchalari. — Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
7. Normurodov M. Yevropa xalqlari etnologiyasi (ma’ruzalar matni). — Toshkent: O‘zMU, 2020.
8. To‘raxo‘jayev A. Tarixiy etnologiya asoslari. — Toshkent: “Iqtisodiyot va moliya”, 2014.
9. Yevropa tarixi va madaniyati ensiklopediyasi. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011.
10. <https://ziyozuz.com> sayti